

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

JOFS

6-CON

ИЮНЬ, 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

Journal of Fundamental Studies

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ



IMFAKTOR
PAGES



ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-6

ТОШКЕНТ – 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-6>

Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

Фалсафа фанлари

MAMAJONOV Ibrohim Olimjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
ofitseri, tadqiqotchi*

SHERMATOV Iso Zayniddin o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
ofitseri*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8072988>

MUQADDAS DINIMIZDA VATAN TUSHUNCHASI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muqaddas dinimizda Vatan so'ziga atroflicha ta'riflar keltirilgan bo'lib, insonlarning o'zi tug'ilib o'sgan maskanlarini qay darajada e'tirof etishi hamda e'zozlashi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, muqaddas dinimizda vatan tushunchasiga keng urg'u beriladi va albatta yoritiladi.

Kalit so'zlar: vatan, islom, din, muhabbat, ona, millat, ona millat, ona maskan, ona diyor, muqaddas dinimiz.

МАМАЖОНОВ Ибрагим Олимжан оглы

*Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан
офицер, исследователь*

ШЕРМАТОВ Иса Зайниддин сын

*Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан
офицер*

ПОНЯТИЕ ОТЕЧЕСТВА В НАШЕЙ СВЯЩЕННОЙ РЕЛИГИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье даются подробные определения слова Отечество в нашей священной религии, анализируется степень признания и почитания людьми места своего рождения. Кроме того, в нашей священной религии широко подчеркивается и, конечно же, освещается понятие Отечества.

Ключевые слова: Родина, ислам, религия, любовь, мать, нация, мать-нация, мать-обитель, Мать-Земля, наша святая религия.

MAMAJONOV Ibrohim Olimjon ugli

*Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan
officer, researcher*

SHERMATOV Iso Zayniddin ugli

*Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan
Officier*

THE CONCEPT OF HOMELAND IN OUR SACRED RELIGION

ANNOTATION

This article provides detailed definitions of the word motherland in our holy religion and analyzes the extent to which people recognize and honor the places where they were born and grew up. In addition, in our sacred religion, the concept of the motherland is widely emphasized and certainly illuminated.

Keywords: Homeland, Islam, religion, love, Mother, Nation, Mother Nation, Mother settlement, motherland, our holy religion.

Islom dini – avvalo, tinchlik va do‘stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma‘rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlaymiz. Muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iyan qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

*Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni*

Har bir xalq va davlat o‘zining mustaqilligini e‘lon qilgan kundan boshlab, uni asrab avaylash haqida qayg‘urishga kirishadi, uning taraqqiyoti uchun s‘ay harakat qiladi. Bugungi murakkablashib va yanada keskinlashib borayotgan globallashuv sharoitida xalqning tinchligini va osoyishta hayotini avaylab asrash o‘ta muhim dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga tinchlikka kundan-kunga zamonaviylashgan tahdidlar tobora avj olib bormoqda.

Har qanday yot g‘oyalarga qarshi kurashish uchun insonlar ongiga sog‘lom g‘oya va e‘tiqodni singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kungi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida bu kabi yot g‘oyalarga qarshi kurashishni quyidagicha ta‘riflaydi: “Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma‘rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz.

Buning uchun nafaqat mas‘ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha oila, mahalla va ta‘lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur [1]” deb ta‘kidlagan edi.

Dunyo tamadduniga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz borki ulardan bizga meros qolgan ma‘naviy boylik bugun butun insoniyatni ma‘rifatga boshlamoqda. Ularni ezgulikka, komillikka va o‘zaro ahillikka chorlamoqda.

Biz musulmon dini haqida gapirganimizda, avvalo, Alloh va uning Rasulini, o‘zimizga ruhan yaqin bo‘lgan ulug‘ allomalarimiz va imomlarimizni tasavvur qilamiz.

Manashu qutlug‘ zaminimizda tug‘ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom olamida cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G‘ijduvoni, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma’naviy hayotimizni mana shu ulug‘ nomlar bilan bog‘laymiz [2].

Butun islom olamida, cheksiz ehtirom qozongan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Zamaxshariy, Xo‘ja Bahouddin Naqshband kabi olim va obidlar ayni bizni vatanimizdan yetishib chiqqanligi barchamizni qalbimizda yuksak iftixor tuyg‘usini jo‘sh urdiradi. Bu buyuk insonlarning aziz nomlari va bizga qoldirgan o‘lmas meroslari muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Biz dinimizni bu ulug‘ siymolarsiz tasavvur qilolmaymiz.

Din insoniyatni hech qachon yomon yo‘lga boshlamagan. Din bu dunyoni o‘tkinchi ekanligini ta’kidlagan holda oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo‘lishga, harom yo‘llardan uzoq yurishiga, savob ishlar bilan yaxshi inson bo‘lishga va kelgusi avlodlarga yaxshi nom qoldirishga da’vat etadi. Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik [3].

Insonlarning shaklu-shamoyili, yuz tuzilishi, ko‘rinishi, ko‘z qarashlari, yurish-turishi, tarovati, xullas, uning barcha ichki va tashqi dunyosi u tug‘ilib o‘sgan, kamolga yetgan hududga mos bo‘ladi. Ana o‘sha hudud uning Vatani hisoblanadi.

Vatan atamasi arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi. Vatan so‘zi arabcha bo‘lganligi uchun biz bevosita arab manbalariga murojaat qilganimizda “Vatan” so‘ziga deyarli bir xil izoh berilgan.

“Vatan” so‘zi: “Inson u yerda xoh tug‘ilgan xoh tug‘ilmagan bo‘lsin, istiqomat qiladigan va maskan tutgan yer” sifatida ifodalangan [4].

Ibn Xaldun “Vatan – insonning tug‘ilib o‘sgan yeri, uning go‘daklik chog‘idanoq mehr qo‘ygan o‘chog‘idir” deb ta’rif berganlar.

Vatan hissi – muqaddas tuyg‘u. Vatan hissi – bu uning egasi bo‘lmish xalqni sevmok, hurmat qilmoq, qadriga yetmoq, e’zozlamoq va e’tirof etmoqlikdir. Vatan bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Bu uning madaniyati, ma’naviyati, ma’rifati, tili, dini, e’tiqodi, fe‘l-atvoridir.

Turli xil millat vakillari Vatan tushunchasiga turli xil javob berishadi, ba’zi millat vakillari esa Vatan so‘zini zarurat yuzasidan “ona Vatan”, “asl Vatan”, “tug‘ilgan yer” kabi so‘zlar bilan qo‘shib aytishar ekan. Ba’zilar Vatanga “Insonni tug‘ilib kindik qoni to‘kilgan joy” deb ham tor ma’noda ta’rif berishadi.

Vatanni onaga tenglashtirishimiz ham bejizga emas. Inson uchun eng qadrli va jonidan aziz inson bu o‘zining onasidir. Har bir insonning o‘z Vatanga bo‘lgan muhabbati, ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilan uning vujudiga, ruhiyatiga singib boradi.

Kishi Vatanga xiyonat qilishi, undagi ota-onasi, farzandlari va xalqining qadriga yetmasligi, ularni o‘ylamasdan Vatanga qarshi qurol ko‘tarishi – islomdagi eng og‘ir va juda katta gunoh hisoblanadi. Hech bir farzand o‘z onasiga xiyonat qilmaganidek, vatanga qanday qilib xiyonat qilishi mumkin.

Vatan ona kabi aziz va mukarram qarashdirki, insonga baxtu-iqbol beradigan zamin hisoblanadi. Abdulla Avloniy aytganlaridek: “Har bir kishining tug‘ilib, o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar...”

Biz Turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eksimuslar shimol taraflar, eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, turonlik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz: “Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l”, - demishlar”.

Insondagi eng oliy tuyg‘u – Vatan tuyg‘usidir. O‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o‘zga yurt tabiatidan o‘z yurti tabiatchalik zavq ololmaydigan, hattoki mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan, butun aql zakovati, qalb qo‘ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go‘zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg‘u namoyon bo‘ladi.

Vatan ham, vatanga muhabbat tuygʻusi ham ilohiy neʻmat boʻlib, butun qon tomirlarida shu tuygʻu joʻsh urgan insonda vatanfurushlik, oʻz vataniga xiyonatdek jirkanch pastkashlik, aqliy tubanlikka moyillik hech qachon sodir boʻlmaydi.

Vatan-bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini chinakam shakllanib, oʻsib kamol topib boradigan zamindir [5].

Tarixdan barchamizga maʼlumki, ota-bobolarimiz, ne ne ajdodlarimiz mana shu tinch, farovon, ozod va obod vatanni qurish yoʻlida jonlarini fido qilib oʻtishgan. Negaki vatanga boʻlgan muhabbatlari ularni mana shu yoʻlda jonlarini fido qilishga chorlagan. Hech kim hech qachon oʻz diyorini dushmanga ravo koʻrmaydi, hattoki bir qarich yeri uchun ham oʻzini fido qilishga tayyor turadi. Vatanga boʻlgan muhabbat shunday tushunchaki uni soʻz bilan tushuntirishga til ojizdir.

Vatandan uzoqda boʻlgan insonning qalbi doimo sogʻinchda va oʻz yurtiga qaytish armonida turadi. Tarixda bunday hodisalar juda koʻp boʻlgan. Xususan, mustaqil Oʻzbekistonimiz tuprogʻida, Samarqand viloyatidagi Shohi Zinda majmuasida qabri boʻlgan buyuk sahobalardan boʻlmish, Hazrati Qusam ibn Abbos roziyallohu anhunung vafotlaridan oldingi holatlarini keltirib oʻtmoqchimiz:

Najmuddin Umar an-Nasafiyning “Al Qand fi zikri ulamoi Samarqand” kitobida Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Qusam ibn Abbos jarohatlanganlarida Abdulloh ibn Abbosga vafot etajaklari xususida xabar qila turib: “tugʻilgan yerim vafot etayotgan joyimdan naqadar uzoq! Makkada tugʻilib Samarqandda vafot etmoqdaman”, degan ekanlar” [6].

Mana shu rivoyatning oʻzidan koʻrinib turibdiki, Hazrati Qusam ibn Abbos roziyallohu anhunung oʻz vatanlariga boʻlgan sogʻinchlari naqadar joʻsh urganligini bilishimiz mumkin.

Inson uchun Vatan bittadir. Vatanni katta-kichigi ham, boy-kambagʻali ham boʻlmaydi. Eng asosiysi Vatan tanlanmaydi. Vatan na pulga sotiladi na kimningdir moli boʻla oladi. Vatan hech kimga inʻom etilmaydi yoki qarzga berilmaydi. Vatan har bir inson uchun muqaddas va betakror maskandir. Har birimiz Vatanni eng oliy neʻmat bilamiz, boshimiz uzra baland koʻtarib, har on va har soniyada uning tuprogʻini koʻzimizga surtib, unga taʼzim bajo aylashimiz ham insoniylik burchimizdir. Zero odamiy zot ham mana shu tuproqdan yaratilgandir.

Muqaddas hadisi shariflarda ham “Hubbul vatani – minal imoni” yaʼni “vatanni suymoq – imondandir” deyilgan. Yaʼni imoni but, vijdoni pok har bir inson oʻz vatanini sevadi, ardoqlaydi, uni gʻanimlar koʻzidan asraydi, unga xafalik yetsa qaygʻuradi, yashnashi uchun yashaydi, hurligi uchun kurashadi.

Ibn Hamdun oʻzining “At-Tazkirat ul-hamduniya” asarida keltiradi: Ibn Abbos roziyallohu anhumo aytadi: “Agar odamlar vatanlariga qanoat qilganlaridek, rizqlariga qanoat qilganlarida biror banda rizqidan shikoyat qilmasdi”.

Vatan muhabbati insonning chin qalbiga kirib borgan va bu muhabbat ortib borsa ortib boradiki, lekin kamayib qolmaydigan his tuygʻu hisoblanar ekan. Vatandan ayro yurish esa qattiq azobli va davomli uqubatdir. Vatandan uzoqlashish ham bir katta imtihondir.

Har qanday maskan oʻz odamlari koʻziga goʻzal koʻrinadi. Rossiyada yashovchi chukcha va eskimoslar Uzoq Shimoliy Sharqning keng tundrasi sovuq joylarini Vatan qilib tanlaganlar. Sahroi Kabirni Vatan qilib yashab kelayotganlar-chi. Insonlar faqat undagina xotirjam boʻla oladilar. “Oʻz uying - oʻlan toʻshaging”, degan oʻzbek maqoli bejizga aytilmagan. Bu kabi maqollar har bitta xalqda boʻlishi turgan gap. Chunki, Vatan muhabbati millat, yurt tanlamaydi.

Vatan muhabbati oddiy insonda ham, xoh u ayol boʻlsin, xoh u erkak boʻlsin, barcha barchaning qalbida ulkan kuch-qudrat, azmu-shijoat baxsh etib, tengsiz jasoratlariga undab, Vatan sharafini oʻzining sharafidek himoya qiladi. Inson sharafi qanchalar ulugʻ boʻlsa, Vatan sharafi ham shu qadar ulugʻdir.

Albatta Vatan himoyasi hammamiz uchun birdayin sharafli boʻlib, bu yoʻlda, bor kuch qudratimiz, tilimiz-u dilimiz, va jismimiz bilan himoya qilishimiz darkor. Zero, xalqning tinch va osuda hayoti, baxt-u saodati oʻzini fidokorman degan shijoatli, haqiqiy yurt farzandlarining jasoratiga bogʻliqdir.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil. 20 dekabr. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>
2. Ислом Каримов. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда “Туркистон пресс” ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблар. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. – 10 б.
3. Ислом Каримов. Ёшлар бугунги ва эртанги ҳаётимизнинг ҳал қилувчи кучидир [Матн] / И. Каримов – Тошкент: “Маънавият”, 2015. – 84 б.
4. Муфтий Нуриддин домла Холиқназаров Исломда ватан тушунчаси [Матн] – Toshketn: “Shamsiddin Boboqonov” 2022. – 11 б.
5. <https://old.Muslim.uz/index.php/maqolalar/item/2104-vatan-imoyasi-oliy-va-sharafli-burchdir>
6. <https://sammuslim.uz/oz/articles/family/vatanni-sevmoq-imondandir>

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-6

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz